



## SLENGNING ADABIY TILDAGI SO‘ZLAR VARIANTLARI BILAN MUNOSABATLARI

ADChTI magistranti Mamatova Nargiza Numonovna

f.f.f.d. (PhD) Ibragimova Gulchexra Madaminjanovna

Sleng nutq birliklari va ularning sinonimlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat ko‘pincha metaforik va nometaforik ifoda usullari sifatidagi o‘zaro munosabat deya tasavvur qilinadi. D.S.Lixachevning ta’kidlashicha, sleng birliklari ularning adabiy tildagi sinonimlariga qaraganda voqelikni “konkretlash” va “moddiylashtirish”, insonni “mexanizasiyalash (narsaga aylantirish)” va “hayvonga aylantirish” xususiyatlarini o‘zida ifoda etadi [6, 47-100].

V.A.Xomyakov adabiy til birliklarining slengdagi sinonimlarini yasashning semiologik mexanizmining umumiy qolipini taklif qiladi:

- 1) bir predmetning o‘rniga boshqa predmetni (uning biror belgi yoki xususiyatini) ifodalash;
- 2) bir harakat o‘rniga boshqa harakatni (uning yo‘nalishini yoki natijasini) ifodalash;
- 3) bir holat o‘rniga boshqa holatni (uning xususiyatini) ifodalash;
- 4) predmetning biror belgisini aytish o‘rniga uning boshqa belgilarini (qo‘shimcha sifatlari yoki xususiyatlarini) ifodalash.

Tahlillarimizning ko‘rsatishicha, slengli nominasiyaning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u adabiy til bilan shaklan bir-xil bo‘lgan so‘zlarning referentlarini ifodalash uchun ishlatiladi va adabiy til doirasida boshqa referentlarni ifodalashdan iborat bo‘ladi. Masalan, **“cabbage”** so‘zi slengda **“pul”** ma’nosini bildiradi, uning asosiy adabiy ma’nosi esa **“karam”** hisoblanadi; **“chopper”** so‘zi slengda **“insonning tishi”** ma’nosini anglatrsa, asosiy adabiy tilda esa **“boltacha, chopqi”** ma’nolarini ifodalaydi.



Sleng va adabiy tilda aynan denotat bo'yicha sinonim bo'lgan birliklar guruhini o'zaro qiyoslash shunday xulosaga olib keldiki, sleng xosil qilishda qatnashadigan birliklar guruhi, o'zlarining adabiy til doirasida qo'llaniladigan guruhlariga qaraganda bir qator parametrlariga ko'ra ancha ixcham va cheklangan guruhlardan iboratdir.

Sleng lug'atlari tahlili asosida ba'zi so'zlarning sleng xosil qilishdagi imkoniyatlari o'ta yuqori ekanligi aniqlandi. Ular turli sleng ma'nolarining paydo bo'lishida qandaydir "semantik portlashni" yuzaga keltiradi. Masalan, turdosh otlar tarkibidagi *cow* so'zi slengda 29 xil, *bear* so'zi 53 ta, *hand* 144 ta, *cherry* 68 ta, *bag* 129 ta va *duck* 89 ta referentni ifodalash uchun ishlatiladi.

Bu hodisaning sabablari masalasi o'ta murakkab hisoblanadi. Argotik nutqning shu kabi faktlarini qayd qilar ekan, D.S.Lixachev ularga quyidagicha izoh beradi: "Biz ommabop so'zlarning juda qiziqarli hodisasiga duch keldikki, ularni ishlatish ko'pincha so'zlovchiga o'zgacha shijoat bag'ishlaydi. So'zning ta'sir doirasini kengaytirish uchun, har doim uning yangidan-yangi ma'nolari o'ylab topiladi, ularning kutilmaganligi va ta'sirchanligi esa jargon foydalanuvchilarini doimo qiziqtiradi va quvontiradi. SHunisi ravshanki, so'zning emosional-ekspressiv jihatiga birinchi navbatda badiiy ijodda e'tibor qaratiladi. Ommabop so'zlarning bu hodisasini, ya'ni so'zning asosiy ma'nosini atayin o'zgartirish, so'zni ko'klarga ko'tarish, unga o'zgacha ta'sirchanlik bag'ishlashni esa til "sho'xligi" deb ta'riflash mumkin" [6, 73-74].

Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda shuni qo'shimcha qilish lozimki, yuqorida misol tariqasida keltirilgan adabiy tildagi so'zlarning sleng nominasiyasidagi ishtiroki hodisasini zamonaviy tilshunoslikdagi konseptual metafora (conceptual metaphor) [5, 31] yoki kognitiv metafora (cognitive metaphor) [7] yordamida tushuntirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, aynan konseptual metafora slengli nominasiyada qatnashuvchi so'zlarning barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berishga xizmat qiladi. Ma'lumki, konseptual metafora nazariyasining paydo bo'lish tarixi J. Lakoff va M. Djonsonlarning 1980 yildagi "Metaphors We Live By" kitobining chop etilishiga borib taqaladi. Ushbu asarda ular bizning borliq haqidagi tasavvurlarimiz aynan konseptual metaforalar orqali aniq



ochib beriladi degan g'oyani ilgari surganlar va bunga quyidagi asosiy tushunchalarni misol tariqasida keltirganlar: "Love is a Journey", "Life is a Journey"; "Social organizations are Plants"; "Love is War" [4, 8-9].

Ularning o'sha paytdagi bildirgan bu fikrlari hozirga kelib bir qator olimlar tomonidan kengaytirilib, ko'plab yangi konsepsiyalar bilan boyitilganligi sababli, bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslikda uchraydigan konseptual metafora haqidagi qarashlar bilan aynan bir-xil deb bo'lmaydi.

Hozirgi kunda kognitiv tilshunoslikda soha mutaxassislari tomonidan qabul qilingan qoidaga ko'ra, konseptual metafora bir ma'noni (odatda mavhum bo'ladi) boshqa bir ma'no (odatda konkret bo'ladi) yordamida tushuntirish yoki tasvirlashdir [4, 5]. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, konseptual metaforadagi ma'nolar vazifasiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1) asosiy (biz tushunishga urinayotgan ma'no): *Love* is a Journey;

2) yordamchi yoki qo'shimcha (metaforik so'zni tasvirlashdan xosil bo'lgan ma'no): Love is a *Journey*.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cruse A.D and others. Cognitive Linguistics, New York: Cambridge University Press, 2004, pp. 194-195.
2. Evans V. Glossary of Cognitive Linguistics. Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007, pp. 33-34.
3. Kovecses Z. Metaphor: A Parctical Introduction. Cary: Oxford University Press, 2002, p. 8.
4. Lakoff G. and Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980, pp. 8-9.
5. Ritchie L.D. Conceptual Metaphor Theory. In: Context and Connection in Metaphor. London: Palgrave Macmillan, 2006, p. 31.



6. Лихачев Д.С. Черты первобытного примитивизма воровской речи. // «Язык и мышление», т.III-IV. – М.-Л., 1935. – с. 47-100.

7. [https://en.wikipedia.org/wiki/Conceptual\\_metaphor](https://en.wikipedia.org/wiki/Conceptual_metaphor).